

O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBINING BOYISH USULLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Qambaraliyeva Noilaxon Jasurbek qizi

**Andijon davlat universiteti, Filologiya va tillarni
o'qitish (o'zbek tili yo'nalishi) fakulteti, 1-bosqich talabasi**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20283542>

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi, o'zbek tili lug'at tarkibining boyish jarayonlari va ularning asosiy manbalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda tilning ichki imkoniyatlari asosida so'z yasash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali lug'at tarkibining kengayishi, tilning lug'at boyligida istorizm va arxaizmlar yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonlarning o'zbek tilining rivoji va boyishidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili lug'ati, lug'at tarkibi boyishi, ichki imkoniyatlar, so'z yasash jarayoni, o'zlashma so'zlar, leksik istorizm, leksik arxaizm .

Abstract: This article scientifically analyzes the study of vocabulary wealth as a system in lexicology, the processes of enrichment of the Uzbek language vocabulary and their main sources. It covers the creation of words based on the internal capabilities of the language, the expansion of the vocabulary through the acquisition of words from other languages, historicisms and archaisms in the vocabulary of the language. It also substantiates the role of these processes in the development and enrichment of the Uzbek language.

Keywords: uzbek language vocabulary, vocabulary enrichment, internal possibilities, word formation process, loanwords, lexical historicism, archaism.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ изучения лексического богатства как системы в лексикологии, процессов обогащения узбекского языкового словаря и их основных источников. Рассматриваются процессы создания слов на основе внутренних возможностей языка, расширение словарного запаса за счет заимствования слов из других языков, историцизмы и архаизмы в лексике языка. Также обосновывается роль этих процессов в развитии и обогащении узбекского языка.

Ключевые слова: словарный запас узбекского языка, обогащение словарного запаса, внутренние возможности, процесс словообразования, заимствованные слова, лексический историзм, архаизм.

Kirish. Ma'lumki, leksikologiya grekcha "lexikos" – so'z, lug'at, "logos" ta'limot ma'nosini bildirib, so'z, so'z ma'nosining kengayishi, torayishi, yo'qolishi, o'zgarishi, ma'no ko'chishi, so'z ma'nosining taraqqiyoti, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, o'z va o'zlashgan, eski, hozirgi, yangi qatlam, frazeologiya, terminologiya, etimologiya, leksikografiya kabi hodisalar haqida ma'lumot beruvchi tilshunoslikning bir bo'limi hisoblanadi.¹ Leksikologiyaning mohiyati asosan til leksikasi, til boyligi va uning qatlamlaridan iboratdir.²

Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi. Leksikologiyada tilning lug'at boyligi sistema sifatida o'rganiladi, chunki bu boyluk so'zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig'indisi emas, ular (lug'aviy birliklar) bu tizimda ma'no va vazifalaridagi

¹Bu haqida qarang: Qodirov Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "Metodist nashriyoti", 2025. – 336 b.

² Bu haqida qarang: M.M.Mirtojiev. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, 2000. – 80b.

o'xshashliklar va farqlar asosida ma'lum paradigmalarni hosil qiladi, umumiylik-xususiylik-alohidalik, butun-bo'lak va boshqa shu kabi ma'no munosabatlari asosida ham ma'lum guruhlarga birlashadi, demak, bu tizimdagi so'z va elementlar yaxlit bir organizmning to'qimalari va hujayralari munosabatida bo'ladi, ulardan birining bo'lishi ikkinchisining bo'lishini ham taqozo qiladi.³

Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko'rilganda, so'z ma'nolari va tushunchalarning o'zaro bog'liq holda bo'lishi ko'zda tutiladi. L. lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so'zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so'zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me'yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so'z birikmalarini me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi.⁴

O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman va o'zbek-rus bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ravishda o'zbek tilining lug'at boyligida ikkita yirik qatlam – o'z va o'zlashgan qatlamlar tarkib topgan.⁵

O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi. 1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkiy xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir⁶

Bunday so'zlar o'zbek tili lug'at boyligida anchagina qismni tashkil etadi, deyarli barcha so'z turkumlarida mavjud.

- 1) ot: *yurt, o'g'il, bog'* va sh.k.
- 2) sifat: *ulug', ko'k, yirik* va sh.k.
- 3) son: *bir, ikki, uch* va sh.k.
- 4) olmosh: *men, sen* va sh.k.

O'zbek tilining o'z leksemalari. Bunday so'zlarga o'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan va ichki imkoniyatlar, o'ziga xos qonun-qoidalar asosida yasalgan yasama so'zlar kiradi. Bunday so'zlar quyidagi usullar bilan yasaladi:

1. Semantik usul. Bunda ma'no taraqqiyoti yangi leksemani yuzaga kelishiga olib kelgan: o't ("o'simlik") – o't ("olov"), soch ("boshdagi soch") – soch ("tarqat -fe'l").

2. Affiksatsiya usuli. Bunda uch holat kuzatilishi mumkin:

³ Bu haqida qarang: Jamoxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b.

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>.

⁵ Bu haqida qarang: Jamoxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b.

⁶ [file:///C:/Users/User/Downloads/64-68%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/64-68%20(2).pdf).

a) asli o'zbekcha bo'lgan so'zlarga shu tilga oid qo'shimchalarni qo'shish bilan so'z yasash: *do'stlik, uysiz, gulchi*.

b) o'zlashma so'zlarga o'zbek tili vositalarini qo'shish bilan so'z yasash:

– arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *odobsiz, talabalik, ilmi*.

– fors – tojik so'zlardan yasalgan so'zlar: *darslik, rangsiz, hunarli*.

– ruscha so'zlardan yasalgan so'zlar: *traktorchi, formali, direktorlik*.

c) boshqa tildan o'tkan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashgan so'zlardan yasalgan so'zlar: *gulzor, guliston, fudbolchi*.

Demak, yasama so'z komponentlaridan biri o'z tiliga tegishli bo'lsa, yasama so'z shu tilning qonun-qoidalari asosida yasalgan bo'lsa, bu so'z o'z qatlamga xos so'z bo'ladi.⁷

B.Mengliyevning qayd etishicha, leksikologiya til lug'at tarkibining boyishini o'rganganda uning uch tipini ajratadi. Bulardan ikkitasi (yangi so'z yasash, so'zni yangi ma'noda qo'llash) ichki boyish imkoniyati bo'lsa, bittasi tashqi (so'z o'zlashtirish) imkoniyatidir.⁸ H.Jamolxonovning fikriga ko'ra esa leksema o'zlashtirish o'zbek tili lug'at tarkibining o'zlashgan qatlamini shakllantiruvchi asosiy manbadir. Bunday o'zlashtirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1) jonli so'zlashuv orqali. Bunda boshqa til leksemalari o'zbek tiliga mahalliy aholining og'zaki nutqi orqali o'tadi.

2) bosma manbalar orqali. Bunda boshqa tillardagi matnlarning o'zbek tiliga o'girilgan nusxalarini matbuotda chop etish yoki o'zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til leksemalarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali bo'ladigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi katet, gipotenuza, adabiyotshunoslikdagi kulminatsiya, sujet kabi terminlar, ocherk, roman, povest kabi leksemalar shu yo'l bilan o'zlashtirilgan.

Leksema o'zlashtirish usullari ham ikki xil bo'ladi:

1) o'zicha olish; 2) kalkalab olish.

1) O'zicha olish. Bunda boshqa tildan olinayotgan leksema asosan hech qanday o'zgarishsiz olinadi. Masalan, *institut, drama, zavod* va shu kabi.

2) Kalkalab olish. Kalkalab olishda so'zning o'zi emas, balki uning ma'nosi o'zlashtiriladi. Boshqa tildagi leksemani qismma-qism nusxalab, o'zbekcha leksema yasaladi va bu so'z bilan o'sha tildagi leksemaning ma'nosi ifodalanadi. Masalan, *elektrtarmoq* <rus. *электросет*, *yarimorol* <rus. *полуостров*. Kalkalashning bu turi to'liq kalka sanaladi, chunki leksemaning qismlari to'liq almashtirilgan. Ba'zan boshqa til leksemasining bir qismi o'zgarishsiz olinadi, qolgan qismi esa o'zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Masalan, *radiouzatish* <rus. *радиопередача*, *audio kitob* <rus. *аудиокнига* kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi. So'zlar turli asoslarga ko'ra ko'plab turlarga ajratiladi. Masalan, qo'llanish darajasiga ko'ra umumiy iste'mol va chegaralangan (yoki xususiy) leksika, qo'llanish davriga

⁷ Bu haqida qarang: Jamoxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b. b. [Hozirgi o'zbek adabiy tili \(H.Jamolxonov\).pdf](#).

⁸ Bu haqida qarang: Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2018. -B. 114

ko'ra eskirgan so'z, zamonaviy so'z va neologizm, qo'llanish doirasiga ko'ra dialektizm, professionalizm, jargon kabi turlarga bo'linadi.⁹

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turgani bois tilning lug'at boyligida yangi leksema va atamalar yuzaga kelishi, mavjud leksemalar eskirishi kuzatiladi. Bu jarayon tilning lug'at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi. Tilning lug'at boyligidagi eskirish jarayoni unda leksik istorizmlar va leksik arxaizmlarni yuzaga keltiradi. Xususan, **leksik istorizmlar** o'tmish voqeligi bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Masalan, *saroybon* - "saroyxizmatkori"; *jizya* - "musulmon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon solig'i"; *sovut*-*"eski jangovar zirh"* va b.lar. Istorizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli bo'ladi, ammo ular, ba'zan, qisqa vaqtda paydo bo'lishlari ham mumkin.¹⁰ Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda jihati (nomemasi) va mazmun jihati (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo'lmay qoladi.¹¹ **Leksik arxaizmlar** esa hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi (sememasi). Demak, eskirish jarayoni leksemaning nomiga yoki uning ma'nolaridan biriga tegishli bo'ladi, shunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi:¹² 1) **arxaizm-nomema** – hozirda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi. Masalan, *yuz*(*hozirgi nomi*) - *chehra*(*eskirgan nomi, arxaizm-leksema*: "Hozir Zaynabning chehrasi ochiqroq ko'rinsa ham, ammo bu ochiq chehraning zamirida uni jiddiyroq mashg'ul qilg'an yana bir gap bordek, ya'ni ko'rinishidan shoshqanliq va yo shuning singari bir hol uning shu ochiq chehrasi ostig'a yashiring'andek edi" (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" 433-b.¹³)); *askar*(*hozirgi nomi*)-*sipoh*(*eskirgan nomi, arxaizm-leksema*: "Sipohlarning keksaliklari to'g'risidagi nuqsonni e'tiborga olinmasa, ko'rinish muntazam edi"(A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" 94-b.¹⁴)); 2) **arxaizm-semema** – hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi.¹⁵ Masalan, *kuzatuvlarimizga asosan bo'y leksemasi hozirgi o'zbek tilida "kishi qomatining balandligi", "gavdaning boshdan oyoq ko'rinishi" ma'nolarida qo'llanadi, o'tmishda (eski o'zbek tilida) esa bu leksema "hid", "ifor" ma'nolarini ham ifodalagan:* fikrimizni quyidagi parcha misolida dalillaymiz: "Bog'da yengil shabada tursa, o'zi bilan birga ba'zan kishini mast qiluvchi nastarin hidini, ba'zan esa alvon – alvon gullab yotgan do'lana bo'ylarini olib kelardi". (Oskar Uayld. "Dorian Greyning portreti"). Hozir bo'y leksemasining "hid", "ifor" ma'nolari eskirgan bo'lib, arxaizm-semema sanaladi.

Xulosa. Shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishi uzluksiz jarayon bo'lib, u ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda tashqi lingvistik aloqalar bilan bog'liqdir. So'z yasash va semantik rivojlanish bilan bir qatorda, boshqa tillardan o'zlashgan leksemalar ham lug'at boyligining kengayishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, istorizm, arxaizm va

⁹ Bu haqida qarang: Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. Baxtiyor Mengliyev – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018. -B. 114

¹⁰ Sattorova Nargiza Oblanazarovna. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2023. -B.76

¹¹ Bu haqida qarang: Jamoxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b. [Hozirgi o'zbek adabiy tili \(H.Jamolxonov\).pdf](#).

¹² Jamoxonov H. Ko'rsatilgan manba. – 314.

¹³ A.Qodiriy. O'tkan kunlar. -Toshkent: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023. -448b.

¹⁴ A.Qodiriy. O'tkan kunlar. -Toshkent: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023. -448b.

¹⁵ Jamolxonov H. Ko'rsatilgan manba. —316.

neologizmlar tilning tarixiy va zamonaviy holatini aks ettiradi. Demak, lugʻat boyligining ortib borishi tilning rivoji va ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A.Qodiriy. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023. – 448 b.
2. Jamoxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b. [file:///C:/Users/User/Downloads/64-68%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/64-68%20(2).pdf).
3. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: "Tafakkur boʻstoni", 2018.
4. Mirtojiyev M. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti, 2000.
5. Qodirov Z. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "Methodist nashriyoti", 2025. – 336 b.
6. Sattorova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Leksikologiya. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: "Methodist nashriyoti", 2023.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>.